

O‘ZBEK VA QARAQALPOQ SHOIRI BERDAQNING HAYOTI, IJOD YO‘LI VA ADABIYOTDA TUTGAN O‘RNI

Raxmatullayeva Oydin Ravshan qizi

Qashqadaryo viloyati Tez tibbiy yordam xodimi

ABSTRACT

Ushbu maqolada Berdaq ijodining o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida tutgan o‘rni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqolada, Berdaq o‘z zamonining shoiri, xalqining tanilgan baxshichi va she'rlariga o‘zi kuy bastalab aytganligi haqida ma'lumotlar beramiz.

Kalit so‘zlar: Shoir, baxshi, mutaffakir, insonparvarlik, haqiqat, milliy qadriyatlar uyg‘unligi.

O‘zbek va Qaraqalpoq adabiyoti asoschisi Berdaq to‘g‘risida ma'lumotlar kam saqlanib qolingan. Mutaffakir 1827-yilda Orol dengizining janubida joylashgan Mo‘ynoq tumanining Oqqal'a degan joyda dunyoga kelgan. Asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li bo‘lib, Berdaq ijodkorning taxallusi.

Berdag o‘n yoshligidayoq otasi va onasidan ayrilgach, amakisi Qo‘chqorboyni qo‘lida tarbiya ko‘ra boshlaydi. Berdaq o‘n yoshida ovul maktabida, maktabni bitirgandan so‘ng o‘z bilimni yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida, o‘sha davrdagi yirik ilm maskani hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil oladi.

Berdag yoshligidan she'r yozishni mashq qilgan. Jumladan, xalq qo‘shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishib, mashhur shoirlarning she'rlaridan bahramand bo‘lish, mutaffakir badiiy ijodini kamol topshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi, she'rlaridan kuy bastalay boshladi.

Berdag Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo‘ldi. Urgancha va Buxorani ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumdul va qoraqalpoq shoiri Kunxo‘ja asarlarini mutolaa qilib, ularni o‘rgangan.

Berdaq she'rlarining aksariyati, kambag'al, beva - bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy - zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shavqatsizligiga, zo'ravonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan.

Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shavqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'z aksini topgan. Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. Shuning uchun u o'z zamonasidagi adolatsizlikdan, xon gumashtalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan noliydi, inson qancha mehnat qilmasin muhtojlikdan chiqolmasligidan zorlanadi:

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,
Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi, bu - zamon...

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrlarning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga ko'p bora olingan. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun ular shoirni yo'q qilmoqchi bo'ladilar. Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon inson bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatiga ham ega bo'lmadi. Bu haqida u o'zining "Bo'lgan emas" asarida yozgan. Xullas, buyuk shoirning taqdiri boylar, oxunlar, mullalar, bilan qarama-qarshiliklarda o'tgan. Berdaqning ijodida mehnatkash xalqning ahvoli asosiy mavzudir ("Bo'lgan emas", "Bu yil", "Soliq", "Umrim"), shoir haqiqat uchun mehnatkash ommaning baxti va kelajagi uchun fidokor kurashuvchanligini ozod qiladi ("Menga kerak", "Xalq uchun") va boshqalar. Tarix mavzusidagi "Omongeldi", "Azadosboy", "Ernazarbiy" asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, qoraqalpoq shoir xalq qahramonlarini munosib kuylaydi.

Berdaqning ijodi uning seqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan Qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi (1998). Toshkent shahridagi xiyobonlaridan biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi.

Nukus shahrida Berdaqga haykal o'rnatilgan, musiqali drama teatri, ko'cha va maktabga Berdaqning nomi berilgan.

"Har yili mamlakatimizda 27- noyabr kuni Qoraqalpoq elining buyuk shoiri Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning tavallud ayyomi keng nishonlanadi. Xususan, Qoraqalpog'istonning shahar va tumanlarida, ma'naviyat va ma'rifat maskanlarida Berdaqxonlik tadbirlari o'tkaziladi. Uning she'r va dostonlaridan na'munalar o'qiladi. Berdaq siymosi haqqoniy ma'noda nainki qoraqalpoq balki butun turkiy xalqlarining g'urur va iftixori timsoliga aylangan." (Islom Karimov)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ma'naviyat yulduzlari - Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti (Toshkent -1999-yil)
2. Qurboboyev B,Berdaq va O'zbek adabiyoti (Toshkent - 1999-yil)
3. Tanlangan she'rlar 1958-yil.Toshkent 1976-yil.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi,Birinchi jild,(Toshkent - 2000- yil)